Poyanov Javlonbek Shodmon o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,
Qarshi tumani 30-maktabning Geografiya fani o‘qituvchisi

GEOGRAFIYA DARSLARIDA CHO‘LLASHISH MUAMMOSINI LOYIHA METODINI QO‘LLASH ORQALI O‘RGATISH (10-SINF GEOGRAFIYA DARSLIGI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Ushbu metodik tavsiyada maktab o‘qituvchilarining geografiya darslarida o‘quvchilar tomonidan bajarilishi lozim loyiha darsi keltirilgan. Xususan, 10-sinf geografiya darsliklarida dunyoning ekologik muammolarini loyiha darsi orqali o‘rganish kerakligi keltirilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish orqali o‘quvchilarda dunyodagi asosiy ekologik muammolardan biri hisoblangan cho‘llanish muammosini o‘rganish uchun keng qo‘llashning asosiy yo‘l-yo‘riqlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: cho‘llashish, Loyiha darsi, interfaol metodlar.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ОПУСТЫНИВАНИЯ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДА ПРОЕКТОВ (НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКА ГЕОГРАФИИ ДЛЯ 10-ГО КЛАССА)

Поянова Жавлонбека Шодмон угли
Базовый докторант Каршинского государственного университета,
Учителя географии школы No 30 Каршинского района

Аннотация. *В данной методической рекомендации представлен проектный урок, предназначенный для выполнения учащимися на уроках географии в общеобразовательной школе. В частности, в учебниках географии для 10-го класса предусмотрено изучение глобальных экологических проблем посредством проектного обучения. В рамках изучения данной темы предложены основные рекомендации и методические подходы к эффективному применению проектного урока для изучения одной из основных экологических проблем современного мира — проблемы опустынивания.*

Ключевые слова: *опустынивание, проектный урок, интерактивные методы.*

TEACHING THE PROBLEM OF DESERTIFICATION IN GEOGRAPHY LESSONS THROUGH THE USE OF THE PROJECT METHOD (BASED ON THE 10TH-GRADE GEOGRAPHY TEXTBOOK)

Poyanov Javlonbek Shodmon ugli
Doctoral student at Karshi State University,
Geography teacher at School No. 30 of the Karshi district

Abstract. *This methodological recommendation presents a project-based lesson designed for students to carry out during geography lessons in secondary schools. In particular, geography textbooks for the 10th grade provide for the study*

of global environmental problems through project-based learning. Within the framework of this topic, the recommendation presents key guidelines and methodological approaches for the effective application of a project-based lesson to study one of the major environmental problems of the modern world — the problem of desertification.

Keywords: *desertification, project-based lesson, interactive methods.*

Kirish. Jahonda tabiiy landshaftlarda yuz berayotgan transformatsiyalanishlar va evolyutsion jarayonlar asta-sekin miqdoriy o‘zgarishlardan sifatiy o‘zgarishlarga o‘tib, yangi-yangi antropogen landshaftlarni vujudga keltirmoqda va ularning barqaror rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri tufayli nafaqat tabiiy, balki antropogen landshaftlar va ularning ayrim komponentlari o‘zgaribgina qolmasdan morfologik strukturasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Natijada arid hududlar, ayniqsa cho‘llar tabiatiga antropogen ta’sirning kuchliligi madaniy landshaftlarning vujudga kelishi bilan birga turli landshaft-ekologik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu noxush ekologik muammolar cho‘llarning mikroiqlimi, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosiga xos bo‘lib, bu tabiiy komponentlarning o‘zaro ta’siri barcha landshaftlarga, tabiiy komponentlarga ham ta’siri demakdir [2].

Cho‘llik xususiyatiga ega bo‘lgan hududlar maydonining kengayib borishi jarayoni cho‘llashish deb ataladi. Uning asosiy sabablari daraxt va butalarning kesilishi, chorva mollarining tartibsiz boqilishi, suv resurslaridan nooqilona foydalanish hisoblanadi. Cho‘llashish Janubi-g‘arbiy, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun jiddiy muammo hisoblanadi [1].

Zamonaviy geografiya darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin, bugungi kunda, pedagogik texnologiyalarni qo‘llayapman deb, asosan, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “BBB” va boshqa shu kabi metodlardan foydalanish rasm bo‘lib qolmoqda. Bu esa darslarga o‘quvchilarda bo‘lgan qiziqishni kamayib borayotganligi, innovatsion texnologiyalarga qiziqishni pasayib borishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga turli o‘yinli, ilmiy, nazariy va metodik jihatdan boy va qiziqarli texnologiyalar mavjud.

Asosiy qism. “Loyiha” metodi - bu o‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda o‘quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. O‘quvchilar nuqtayi-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u o‘quvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak. Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, talabalar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.


Loyiha metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. O‘quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida talabalar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

1-chizma.

Loyiha metodining bosqichlari



3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. O‘quvchilar ish rejaga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. O‘quvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. O‘quvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi” da qayd etiladi. O‘quvchilar yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. O‘qituvchi va o‘quvchilarlar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me’yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.


“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi

Qanday loyiha bo‘lishi, uning ko‘rinishi, mavzusi bo‘yicha ham ayrim takliflarimiz bor. Masalan, bugungi kunda dunyoda eng dolzarb muammolardan – biri hisoblanadi.Ushbu global muammoning yechimi sifatida turli chora tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan eng asosiysi, o‘simliklardan tashkil topgan ixotazorlarni tashkil etish, suv resurslaridan ratsional foydalanish kabi tadbirlar hisoblanadi. Bu borada o‘quvchilar muommaning yechimi sifatida turli usullarni taklif etishlari mumkin, ya’ni qurg‘oqchil hududlarda yer osti suvlaridan foydalanishni oshirish, cho‘l sharoitiga moslashgan ekinlarni ko‘proq ekish, cho‘llashish kuchli bo‘lgan hududlarda yer osti suvlarining yuqori darajada intensev kollektor-drenaj tizimi bilan qoplab olish, sizot suvlarining sathini pasaytirish kabi ishlarni tashkil etishni taklif etishlari mumkin.

2-chizma

Loyiha darsini tashkil etish uchun na’muna



Ma’lumotlarga tayangan holda, dunyoda cho‘llashish jarayoni qamrab olingan hududlarni alohida guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiq. Ya’ni 1-guruh Osiyo, 2-guruh Amerika, 3-Yevropa, 4-guruh Avstraliya va 5-guruh Afrika guruhlarini tashkil etish va ushbu jamoalar har bir qitaning tabiiy geografik shart-sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan ushbu muammoning yechimini ishlab chiqishlari lozim hisoblanadi.

Bu yerda o‘qituvchi tomonidan guruhlar tashkil etib, vazifalar berib, uni bajarilishini ta’minlay olishi kerak. Buning uchun pedagog tomonidan “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil


bajara olishlarini ta’minlanishi lozim. Buning uchun pedagogda ushbu metodni ko‘llash uchun yetarli malaka bo‘lishi lozim. Har bir metod yuqori tayyorgarlik daraja va geografik bilimlarga suyansa, auditoriyada albatta ishlaydi, agarda unga yuzaki qaralsa, hech qanday eng yaxshi va samarali metod ham natija bermaydi.

Hozir na’muna sifatida berilgan loyiha darsida o‘quvchilar tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan ishlarning ketma-ketligi va qaysi savollarga javob berishi kerakligi keltirilib o‘tilgan. Ushbu na’muna O‘zbekistondagi cho‘llanish muammosi olingan.

Ushbu metodik tavsiyaning boshqa metodlarga nisbatan qo‘llashning biroz murakkabligini inobatga olgan holda qisqacha holda O‘zbekistonda cho‘llashish muammosini Loyiha metodini qo‘llash uchun uning yaratilish sxemasini taklif etildi.

3-chizma

Loyiha darsi na’munasi





Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu loyiha darsi metodidan foydalangan holda darslarni tashkil etish orqali o‘quvchi yoshlarda hozirgi vaqtda asosiy globol ekologik muammolarni yechishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, maktab o‘quvchilarining mustaqil fikrlashlari, ularning yangi mavzu doirasida turli xil adabiyotlar va ma’lumotlar tuzishi, tushunchalarini aniq va batafsil tushuntirib bera olishi, aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishida ushbu metodning o‘rni beqiyos ekanligi yana shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlari yaratgan loyihalarini ilmiy himoya qilishlari ushbu metodning rolini oshiradi. Ushbu loyiha dasturini ko‘pgina mavzularda jumladan: o‘rmonsizlanish, chuchuk suv tanqisligi, ozon tuynigi, yerlarning botqoqlashuvi va boshqa shunga o‘xshash muommoli vaziyatlarni tashkil etuvchi mavzularda qo‘llash geografiya darslarining samaradorligini oshirishda asosiy metodik tavsiya deb hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Federko V. va boshq. Geografiya 10-sinf darslik. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.- 192 b.

2. Uktamov U. Markaziy Farg‘ona cho‘llari landshaftlarining antropogen transformatsiyalashuvi va geoekologik vaziyati. Geog.fan.fal.dok. disser. Samarqand, 2025. – 137 b.